

FARG'ONA VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT

(2021-yil yanvar-sentabr, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, 3 878,0 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 58,1 ming kishiga yoki 1,5 %ga o'sdi.

2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra doimiy aholi soni 3 878,0 ming kishigayetdi.



Tirik tug'ilganlar soni 74,8 ming kishi



2021-yil boshiga nisbatan 58,1 ming kishiga yoki 1,5 %ga o'sgan



O'lganlar soni 13,4 ming kishi



Shahar aholisi 2 179,7 ming kishi



Nikohlar soni 21,9 ming birlik




Qishloq aholi soni 1698,3 ming kishi



Ajrimlar soni 3,2 ming birlik




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021-yil 1-oktabr holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 297,8 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (7,7 %) va Quva tumanida 264,8 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 96,5 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 80,2 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan Qo'shtepa tumanida 2,5 %ni va Dang'ara tumanida 2,4 %ni, Uchko'prik tumanida 2,3 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Qo'qon shahrida 1,5 % va Quva, Beshariq tumanlarida esa 1,7 %ni tashkil etdi.


Shahar qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulushi, %da




Hududlar kesimida shahar va qishloq aholisining taqsimlanishi (2021-yil 1-oktabr holatiga, %da)



Erkaklar va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi, %da




Hududlar kesimida erkak va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi (2021-yil 1-oktabr holatiga, %da)




Tug'ilish. 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 74,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,0 promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilning mos davriga nisbatan 1,8 promillega oshganligi kuzatildi (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida 24,2 promille bo'lgan).

Hududlar kesimida tug'ilish koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-sentabr 1000 aholiga nisbatan, promille)




Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (2021-yil yanvar-sentabr oylari bo'yicha, ming kishi)



Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-sentabr) Yillar




Ming kishi

Vafot etganlar. 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 13,4 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 63,6 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,8 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 7,6 foizi o‘simtalardan, 5,2 foizi nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 5,1 foizi ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 1,1 foizi yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 11,6 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro‘yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 419 nafarni tashkil etib, ularning 46,1 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 25,0 foizi nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 4,0 foizi tug‘ma anomaliyalardan, 2,9 foizi ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 4,8 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,6 foizi yuqumli vaparazitlar kasalliklardan va 13,6 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



Tabiiy o'sish. 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 61,3 ming kishini tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 5,2 ming kishiga (2020 yilning yanvar-sentabr oylarida 56,1 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Farg'ona viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (ming kishi)
(yanvar-sentabr)
Yillar




Nikoh. 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 21,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,6 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-sentabr, ming)




Hududlar kesimida tuzilgan nikoh koeffitsiyenti (2021-yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Nikohdan ajralishlar. 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 3,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot

(yanvar-sentabr, ming)



Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2021-yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Aholi migratsiyasi

(2021-yil yanvar–sentabr, kishi)



Migratsiya. 2021-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8315 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 10522 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosini minus 2207 kishi bo'lib, 2020-yilning o'tgan shu davrida minus 2300 kishi bo'lgan.

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida migratsiya saldosining eng yuqori kamayishi darajasi Marg'ilon shahrida minus 678 kishi va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona shahrida 996 kishi qayt etildi.



**Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi. tel:(373) 249-87-32**